



“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinnbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimkulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamtdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alihanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

ATAMURATOV Rasuljon Kadirkhonovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*

JABBAROV Ulug'bek Abdurakhmanovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

HOJIYEV Rasulbek Boynazar o'g'li – *falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – доктор педагогических наук, профессор.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – доктор социологических наук, профессор.

Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – доктор педагогических наук, профессор.

Абдураманов Хамид Худайбергенович – доктор экономических наук, профессор.

Бегимкулов Узокбай Шоимкулович – доктор педагогических наук, профессор.

Фарфиев Баҳромжон Атҳамдҷановиҷ – доктор социологических наук, доцент.

Ишкуватов Валикул Турдиевич – доктор исторических наук, профессор.

Карамян Мариэтта Хачатуровна – доктор психологических наук, профессор.

Муслимов Нарзулла Алиханович – доктор педагогических наук, профессор.

Нурматова Мукаррам Ахмедовна – доктор философских наук, профессор.

Нарматов Нуриддин Соатмурадович – доктор юридических наук, профессор.

Рахманкулова Нилуфар Ҳоджи-Ақбаровна – доктор юридических наук, доцент.

Сайдивалиева Хуршида Ҳоджиакбаровна – доктор философии юридических наук (PhD).

Атамуратов Расулжон Кадиржонович – доктор философии педагогических наук (PhD).

Содикова Шоҳида Мархобаевна – доктор социологических наук, профессор.

Умирзаков Баҳодир Ҳамидович – доктор экономических наук, профессор.

Ибрагимов Лутфулло Зиёдуллаевиҷ – доктор географических наук, доцент.

Жаббаров Улугбек Абдураҳмановиҷ – доктор философии педагогических наук (PhD).

Ҳоджинев Расулбек Бойназар оғлы – доктор философии (PhD) по философским наукам.

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – Doctor of Sociological sciences, Professor.

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – Doctor of Economic Sciences, Professor.

Beginkulov Uzokhboy Shoimkulovich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

Farfiyev Bakhromjon Atkhamedjanovich – Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.

Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – Doctor of Historical Sciences, Professor.

Karamyan Marietta Khachaturovna – Doctor of Psychological Sciences, Professor.

Muslimov Narzulla Alikhanovich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

Nurmatova Mukharram Akhmedovna – Doctor of Philosophical Sciences, Professor.

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – Doctor of Law Sciences, Professor.

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – Doctor of Philosophy in Law (PhD).

Atamuratov Rasuljon Kadirkhonovich – Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).

Sodikova Shohida Markhobayevna – Doctor of Sociological Sciences, Professor.

Umirzakov Bakhodir Khamidovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich – Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.

Djabbarov Ulughbek Abdurakhmanovich – Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).

Khodjiev Rasulbek Boynazar ogli – Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences.

SOTSILOGIYA

Usmonova R.M. O‘zbekistonda xotin-qizlar norasmiy bandligini kamaytirishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarining sotsilogik tahlili	4
---	---

JAMIYAT VA OILA

Axunov M.M. Aholi migratsiyasi genezisi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	17
Yulchiyeva D. Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mohiyati	26
Davlatova H.U. Yoshlar orasida intellektual migratsiya ko‘lamini qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish.....	36

IJTIMOIY PEDAGOGIKA

Matkarimov A.M. Oilada ta’lim muhitini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari	46
Ummatkulova N. Oila va maktab hamkorligida o‘smirlarning aqliy rivojlanishini takomillashtirish.....	53
Qahhorova F.Y. Ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodlari	60
Rustamova N.Y. Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari metodikasi mazmunini tahlil qilish.....	67
Egamberdiyeva G.B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni.....	79

IJTIMOIY PSIXOLOGIYA

Arzikulov D.N. Mutaxassislar shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirishning axloqiy-psixologik omillari.....	89
Shamsiyev O‘.B. Bolalar chapaqayligi xususida.....	94
Абдуганиева Д.А. Влияние семейного воспитания на формирование эмоционального состояния личности	100
Xudoyorova M.X. Ta’lim psixologiyasining talabalar o‘zlashtirishidagi ahamiyati	109
Ashurova A.N. O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishning psixologik omillari	119
Nazarova M.Y. Xotin-qizlarga nisbatan kiberzo‘ravonlik: sabab, oqibat va himoya mexanizmlari.....	127



Shamsiyev O'ktam Baxriddinovich,
*O'zbekiston Milliy universiteti "Psixologiya"
kafedrasi professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)*

BOLALAR CHAPAQAYLIGI XUSUSIDA

Annotatsiya. Maqolada ong va faoliyat tamoyilidan kelib chiqqan holda bolalarda uchraydigan chapaqaylik xususiyatini yuzaga keltiruvchi omillar haqida so'z boradi. Shuningdek, chapaqaylik to'g'risidagi turli xil bahsli munozaralar ham tahvilga tortilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются факторы, обуславливающие леворукость у детей, исходя из принципов сознания и деятельности. Также были проанализированы различные спорные вопросы, связанные с леворукостью.

Annotation. The factors that determine left-handedness in children, based on the principles of consciousness and activity were examined in the article. Various controversial issues related to left-handedness were also analyzed.

Таванч со'злар: bola, tug'ma, majburiy chapaqaylik, ota-onas, miya yarim sharlari.

Ключевые слова: ребенок, врожденный, вынужденная леворукость, полушиария головного мозга.

Keywords: child, inborn, forced left-handedness, cerebral hemispheres.

Kirish. Jahon hamjamiyati o'zaro hamkorlikning eng yuqori integrasiyalashuv jarayonida kross-madaniy munosabatlarning muhim tarkibiy qismlari bo'lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan e'tiborni tobora kengaytirib bormoqda¹. Bugungi kunda qadriyat yo'nalishlarini tadqiq etishning ahamiyat shundaki, unda nafaqat bir

¹ Мочумото Д. Психология и культура. Современные исследования. // Психологическая энциклопедия (Электронный ресурс)/ Д. Мочумото. – Москва, 2002

hududda yashovchi turli etnik guruqlar, balki turli hududlarda yashovchi turli millat va elatlarning kross-madaniy munosabatlariini tadqiq etish o‘zaro milliy, madaniy va ilmiy doiradagi hamkorliklarning samarali rivojlanishiga ta’sir o‘tkazadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, talabalar jamoasining kross-madaniy munosabatlari muammolarini aniqlash, psixodiagnostik tadqiqotlarni tashkil etish va amalga oshirish masalalari dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda.

Olib borgan uzoq yillik psixologik tadqiqotlarimiz tahliliga ko‘ra, ontogenetika jarayoni dastlabki yillardagi psixik rivojlanishga ko‘makdir, “ona xolding tajribasi”ning shakllanganlik darajasi va ona faoliyati bolaning maktab yoshidagi o‘zlashtirish samaradorligi va maktab muhitiga ijtimoiy-psixologik moslashishiga hamda o‘smirlilik yoshi inqirozi, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xulqiy og‘ishlarning oldini olishga xizmat qiluvchi omillar keng tadqiq etilmoqda. Biroq bola shaxsi shakllananishiga ta’sir etuvchi alohida sifatlarning o‘rganilishiga qaramasdan, oilaviy o‘zaro munosabatlarning markaziy subyekti bo‘lmish “ona xolding tajribasi”ning tuzilishi, munosabatlar rivojlanishi dinamikasi, bolaning psixik rivojlanishi hamda ijtimoiylashuvi bilan aloqasi, “ona xolding tajribasi” va ta’sir kuchi sifatlari bola psixik rivojlanishida aks etishiga doir tadqiqotlar deyarli mavjud emas.

Bugungi kunda ota-onaning muhim ijtimoiy funksiyasi – avlodlarga oilaviy qadriyatlarni nafaqat asrab qolish, balki uni rivojlantirish maqsadida ham avlodlararo mulqotni saqlab qolish. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da oila va oilaviy munosabatlar ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish borasidagi ishlar yangi sifat bosqichiga ko‘tarilgan². Shu nuqtayi nazardan, respublikamizda oilaga va birinchi navbatda, onalikka psixologik tayyorlashning zarurligiga davlat ahamiyati darajasida e’tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism. Ushbu maqolada biz tomondan oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash bolalar psixik tarbiyasi va taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillarga alohida e’tibor qaratilgan.

Chapaqaylik bu turli xil faoliyat va harakatlarning chap qo‘lda amalga oshirilishi bo‘lib, uni yuzaga keltiruvchi omillar turli xil bo‘lishi mumkin. Masalan, majburiy chapaqaylikka kishining o‘ng qo‘li bilan uzoq vaqt davomida harakatlarni bajara olmasligi sabab bo‘lishi

*Olib borgan uzoq
yillik psixologik
tadqiqotlarimiz
tahliliga ko‘ra,
ontogenetika jarayoni
dastlabki yillardagi
psixik rivojlanishga
ko‘makdir,
“ona xolding
tajribasi”ning
shakllanganlik
darajasi va ona
faoliyati bolaning
maktab yoshidagi
o‘zlashtirish
samaradorligi va
maktab muhitiga
ijtimoiy-psixologik
moslashishiga
hamda o‘smirlilik
yoshi inqirozi,
shuningdek,
yuzaga kelishi
mumkin bo‘lgan
turli xulqiy
og‘ishlarning
oldini olishga
xizmat qiluvchi
omillar keng tadqiq
etilmoqda.*

² 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси <https://lex.uz/docs/5841063>

*Chapaqaylikning
kelib chiqishi
borasida
hanuzgacha bahsli
fikrlar mavjud.
Agar go‘dak
emizish paytida
ko‘proq o‘ng
taraf bilan yotib,
o‘ng qo‘li onasiga
tiralgan holatda,
chap qo‘l esa
erkin harakatda
bo‘lganda ham
chapaqaylik
yuzaga kelishi
mumkin. Bola
tug‘ilishidan yoki
ilk oyalaridan uning
chapaqayligini
aniqlash mushkul.*

mumkin. Ko‘p hollarda chapaqaylik tug‘ma bo‘ladi va bu bolaning 1–1,5 yoshlik paytidan sezila boshlaydi, ba’zi hollarda esa bolalarda chapaqaylik ochiqchasiga namoyon bo‘lmasligi ham mumkin. Bunda bola yoshligidan barcha faoliyat turlarini o‘ng qo‘lida bajaradi, biroq ayrim noodatiy harakatlarda yoki hissiy-emotsional holatlardagina chap qo‘lidan foydalanib yuboradi.

Chapaqaylikning kelib chiqishi borasida hanuzgacha bahsli fikrlar mavjud. Agar go‘dak emizish paytida ko‘proq o‘ng taraf bilan yotib, o‘ng qo‘li onasiga tiralgan holatda, chap qo‘l esa erkin harakatda bo‘lganda ham chapaqaylik yuzaga kelishi mumkin. Bola tug‘ilishidan yoki ilk oyalaridan uning chapaqayligini aniqlash mushkul. Ota-onalar farzandining chapaqayligini 1–1,5 yoshga to‘limgunga qadar payqamasligi mumkin. Agar ular bolaning chapaqayligini bir yoshga to‘lmasdanoq sezishsa, nevropatolog-mutaxassislariga murojaat qilib, chapaqaylik to‘la shakllanmasdan avval oldini olishlari mumkin. Afsuski, keyinchalik bu holatni to‘g‘rilash ehtimoli kamayadi. Odatta, chapaqaylik kamchilik, me’yordan og‘ish va patologik holat sifatida ham izohlanib, o‘ng qo‘l bilan faoliyatni amalga oshiruvchilarga nisbatan aqliy, jismoniy va psixologik jihatdan ortda qolish, degan yanglish nuqtayi nazarlar ham uchrab turadi. Chunki chapaqaylar har qanday faoliyat va harakatlarni bemalol bajara olishadi (yozish, chizish va hokazo). Chapaqaylar butun ontogenet davomida barcha jismoniy va psixik rivojlanish bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tib, barkamol shaxs sifatida shakllanib boradi. Yuqoridaq fikrlarni A.Makedonskiy, Leonardo Da Vinci va Mikelanjelo kabi bir qancha mashhur chapaqay shaxslar misolida ham izohlash mumkin.

Chapaqaylarni amallarni o‘ng qo‘lda bajarishga majbur qilish yoki buning uchun jazolash ularning psixologik travma olishiga, nevrotik holatlari yuzaga kelishi va nutqining buzilishiga, shuningdek, duduqlanishiga olib kelishi mumkin. O‘ng qo‘lda yozishga o‘rgatilgan chapaqaylardan yozma ishni avval o‘ng qo‘lda, so‘ng chap qo‘lda bajarishlari so‘ralganda, ularning chap qo‘lda bajargan ishlari o‘ng qo‘ldagisidan farqli ravishda savodliroq va chiroyliroq bo‘lgan. Ular o‘ng qo‘lda yozganlarida sekin yozib, juda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘ygan va ularda mushaklarning zo‘riqishi, yurak urishining tezlashishi, arterial bosimning ko‘tarilishi, emotsiyal zo‘riqishi kuzatilgan.

Ushbu mulohazalar chapaqaylarning amallarni o‘ng qo‘lda bajarishiga majburlash ularning o‘zlashtirishidagi susayishiga olib keluvchi omil sifatida qaralishiga turtki bo‘ladi. Agar ularning psixologik holati va jarayonlariga qarshi borib majbur qilinmasa, ular o‘ng qo‘lda faoliyat olib boruvchilardan kam bo‘limgan yutuqlarga erishishlari mumkin.

Oxirgi 50 yil ichida Yevropa mamlakatlarida chapaqaylar soni 3–4 martaga oshgan. Bunga sabab – ular majburan o‘ng qo‘lga o‘rgatilmayotgani, chapaqaylarga mo‘ljallangan texnik vositalar ishlab chiqilib, yetarlicha imkoniyatlar yaratilayotganidir.

Chapaqay bolalarning ota-onalari bilan suhbat olib borilganda, ular bolalariga o‘ng qo‘lda ishlashga o‘rgatishga harakat qilganliklari va bu jarayonda ular juda ko‘p to‘sqliarga uchrashganlarini ta‘kidlashgan. Ular farzandlaridagi emotsional zo‘riqish, charchash va faoliyatdan bosh tortganlarini aytib, ularni o‘ng qo‘lga o‘rgatish imkoni bor yoki yo‘qligini so‘rashgan.

Chapaqay bolalarni o‘ng qo‘lga o‘rgatish to‘g‘rimi? Bunday bolalar boshqalardan nimasi bilan farqlanadi? Axir bola 2 ta o‘ng yarimshar bilan tug‘iladi-ku?! Buning sababi – shunchaki ularning miyasining o‘ng yarimshari ustunlik qiladi. Keyinroq bola shaxsining rivojlanish darajasiga qarab ikkisidan biri chapaqaylasha boshlaydi. Shuning uchun inson miyasi 2 – o‘ng va chap yarimsharlardan tashkil topadi va bularning har biri inson hayotida turli vazifalarni bajaradi. Masalan, chap yarimshar – nutq va fikrlash, o‘ngi – musiqiy va badiiy ijodiyot, obrazli tafakkur funksiyalarini bajaradi. Chap yarimshar baxt va huzur baxsh etadi, o‘ng yarimshar ustunligida esa qo‘rquv va qayg‘u hissi ustunlik qiladi. Bunday farqlarni ko‘plab keltirish mumkin, asosiyisi – yarimsharning qay birining ustunligida insonlarning psixologik xususiyatlarini farqlash mumkinligi. Yarimsharlardan birining chapga o‘tishi bilan bolalarda nutqning paydo bo‘lishi va bolalarning o‘zini o‘zi anglashi boshlanadi. Shuning uchun 3 yoshdan boshlab bolalar orasida o‘naqaylar va chapaqaylar, aniqrog‘i, o‘ng qo‘llar va chap qo‘llar aniq ajralib chiqqa boshlaydi.

Chap yarimsharning ustunligida o‘ng qo‘l, o‘ng yarimshar ustunlik qilganda esa chap qo‘l ishlaydi. Chapaqay bolalar tenqurlaridan nafaqat o‘jarligi bilan, balki yana bir qancha jihatlari bilan ham farq qiladi. Odatda, ular badiiy ijodga qobiliyatli va juda hissiyotga boy bo‘lishadi. Ular uch yoshdanoq qum yoki plastilindan boshqa bolalarga nisbatan narsalarni yaxshiroq yasay olishadi. Ko‘plab adabiyotlarda ularning musiqaga iqtidori borligi ta‘kidlanadi. Shu bilan birga, ularning nutqi kechroq chiqishi va ayrim tovushlar talaffuzida qiyinchiliklarga uchrashi ehtimoli mavjud. Bunday bolalar soddadil, ishonuvchan, o‘tkinchi histuyg‘ularga ta‘sirchan, yig‘loqi, o‘jar, jahli tez va istaklarining amalga oshishida qat’iy bo‘lishadi. Ularga o‘qish va yozish erta yoshda ancha qiyinchiliklar tug‘diradi. Chapaqaylar muloqotga tez kirishuvchan bo‘lib, agarda biz ularning shaxsiy sifatlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiya usullarini qo‘llasak, barcha muammolarimiz osongina hal bo‘ladi.

*Chapaqay
bolalarni o‘ng
qo‘lga o‘rgatish
to‘g‘rimi?
Bunday bolalar
boshqalardan
nimasi bilan
farqlanadi? Axir
bola 2 ta o‘ng
yarimshar bilan
tug‘iladi-ku?!
Buning sababi
– shunchaki
ularning
miyasining
o‘ng yarimshari
ustunlik qiladi.*

Chapaqay bolalarni maktabga bergunga qadar ularni o'qishga, yozishga, chet tillarni o'rgatishga shoshilmaslik lozim, chunki bolaning o'zini o'zi baholashi pasayishi mumkin. Ularni qanday bo'lsa shundayligicha yaxshi ko'rish, yuqori natijalarga erishishi uchun yaxshi imkoniyatlar yaratish lozim.

Chapaqay bolalar ota-onalari o'zlarini qanday tutishlari kerak?

Bunday bolalarning hissiyotga beriluvchanligini hisobga olib, ular bilan juda hushyor va xayrixoh bo'lish kerak. Buning uchun oilada qulay sharoit yaratish lozim. Uning o'jarligi bilan kurashmaslik zarur, uni bu holatdan chiqarishda uning uchun qiziqarli bo'lgan o'yinlarni eslatish va bu bilan chalg'itish tavsiya etiladi. Ularni o'ng qo'lga o'rgatishga harakat qilmang, atrofdagilarga va uning o'ziga chapaqaylik ham me'yorning bir ko'rinishi ekanligini, bunday odamlar ko'pchilikni tashkil qilishini tushuntiring. Ularning kichik ishlarini ham maqtab, badiiy yoki musiqiy qobiliyatini qo'llab-quvvatlash lozim, lekin undan vunderkind tayyorlashga harakat qilmang. Bolaga tez-tez kutilmagan sovg'alar berib turing.

Ularga bo'lган talablarning oshganini bolaga sezdirmaslik va boshqa bolalarni ularga namuna sifatida ko'rsatmaslik kerak.

Chapaqay bolalarni maktabga bergunga qadar ularni o'qishga, yozishga, chet tillarni o'rgatishga shoshilmaslik lozim, chunki bolaning o'zini o'zi baholashi pasayishi mumkin. Ularni qanday bo'lsa shundayligicha yaxshi ko'rish, yuqori natijalarga erishishi uchun yaxshi imkoniyatlar yaratish lozim.

Agar besh yoshdan so'ng bolada tushunarsiz holatlar, ya'ni xavotirlanish yoki qo'rquvni sezilsa, mutaxassislarga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chapaqay bolalarning ota-onalari o'zlarini nimalardan cheklashi lozim?

- ularning boshqalardan farq qilishi, ya'ni faoliyatning barcha turlarida chap qo'ldan foydalanishini hadeb eslataverishdan;
- buni tanishlarga yoki begonalar orasida ko'p tilga olaverishdan;
- bolani o'ng qo'lga o'rgatish va ularni o'qish va yozishdagi o'zlashtirish jarayonini tezlashtirishga urinishdan;
- ular bilan bo'ladigan muloqotda rasmiy va mehrsiz bo'lishdan;
- ularning qobiliyatini amalga oshirish uchun unga bo'lган talablarning oshganligini ta'kidlashdan;
- maktabgacha yoshdagagi bolaning o'qish, yozish, chet tillarni o'rganish borasidagi sustkashligi uchun tanbeh berishdan.

Oilada bunday bolalar o'zini kerak his qilishi, o'zini-o'zi yuksak baholashi va o'ziga ichonchini kuchaytirishga ko'maklashish lozim. Agar yuqoridagilarga amal qilinmasa, bolaning nutqida kamchilik, duduqlanish yoki nevrozning yuzaga kelishi va rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin.

Chapaqylarga qanday yordam berish mumkin?

Bola maktabga chiqqunga qadar uning asosiy vazifa bajaradigan qo'li va ko'zini aniqlash juda muhim. Agar bolaning yetakchi ko'zi chap,

yetakchi qo‘li esa o‘ng bo‘lsa, unga o‘qishni o‘rgatishda qaysi harfdan boshlab o‘qishni rangli qalamda belgilab bering, keyinroq tepadan pastga yo‘nalgan chiziq orqali ko‘z nazarini aniqlang. Chapaqay bolalar ko‘pincha bosma harflarni teskari tomonga qaratib yozishadi (3). Bunday hollarda ularga tanbeh berish o‘rinsiz. Ularga harflarni namuna sifatida har xil uzunlikdagi tayoqchalar va yarim aylanalarini chizishni o‘rgating, so‘ngra harflarni qayerdan boshlab qayerda tugatishini, ruchkaning yo‘nalish chiziqlarini o‘rgating (A). Bolalarga harflarning o‘xshash va farqli tomonlariga e’tibor qaratish, harflarni yozish rejasi haqida tushuntirish yaxshi natija beradi.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шамсиев Ў.Б. “Оилавий холдинг – бола ижтимоийлашувининг психологик механизми”: монография // Тошкент кимё-технология институти. – Тошкент: Наврўз, 2018. – 124 б.
2. Шамсиев Ў.Б., Шамсиева М.Б. Оилавий холдинг ва шахс генезиси: ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент: “ЎзР Фанлар Академияси асосий кутубхонаси” босмахонаси, 2016 йил. – 46 б.
3. Шамсиев Ў.Б. Оиласда мактабгача ёйдаги бола шахси ўзини ўзи англашининг ижтимоий-психологик омиллари: психол. фан номз. ...дисс. – Тошкент, 2010. – 127 б.
4. Шамсиев Ў.Б. Оиласий муносабатлар тизимида боланинг ўзини-ўзи англаши жараёни: ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент: “Мумтоз сўз” нашириёти, 2012 йил. – 52 бет // <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/>
5. Arzikulov D.N. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolar bilan psixologik muloqat o‘rnatish usullari. // JAMOAT XAVFSIZLIGI Ilmiy-amaliy jurnali. ISSN2181-9335. 2-son, 2023.
6. Arzikulov D.N. Social and Psychological Aspects of the Concept of Professional Culture of Military Personnel in the System of Ensuring Public Security.// International journal of human computing studies <https://journals.researchparks.org/index.php/IJHCS> e-ISSN: 2615-8159| p-ISSN: 2615-1898 Volume: 05 Issue: 03| Mar 2023.

**“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE**

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE**

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-soni
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.
Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions
of makhalla, family and gender equality.*

MUASSIS:
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**
Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,
Jabborov U., E.Sultonov**
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**
Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2024.
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8
Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“Pages Print” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Тошкент, Олмазор тумани, Чимбай кўчаси, 8-уй.